

Pedagoglarni kasbiy rivojlanishlarida nazariy va amaliyotning ahamiyati

Shirinoy Tursunali-qizi Ismatullayeva

Ilmiy maslaxatchi: Azimaxon Odiljanovna Kamolova

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolamda pedagoglarining kasbiy rivojlanishida nazariy va amaliyotning o'rnini ularning o'zaro bog'liqligi hamda uyg'unlashuvi masalalari tahlil qilingan. Undagi mavzuning dolzarbligi asoslab berilib pedagog kasbiy rivojlanishining mazmuni nazariy bilimlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va amaliy faoliyat orqali kasbiy mahoratini shakllantirish, ta'limda uchraydigan ayrim muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan amaliy misol nazariya va amaliyotning bir birini to'ldirishi asoslangan. Pedagoglarning malakasini oshirish tajriba almashish kasbiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha masalalar berilgan, va xulosa qismida zamonaviy ta'lim sifatini oshirishda nazariya va amaliyotning muhim ahamiyatga ega ekani takidlangan.

Kalit so'zlari: pedagog, kasbiy rivojlanish, nazariya, amaliyot, kasbiy mahorat, ta'lim sifati

The importance of theory and practice in the professional development of teachers

Shirinoy Tursunali-kizi Ismatullayeva

Scientific advisor: Azimaxon Odiljanovna Kamolova

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the role of theory and practice in teachers' professional development, as well as their interrelationship and harmony. It justifies the topic's relevance, and examines the content of pedagogical professional development, including the importance of theoretical knowledge in the educational process and the formation of professional competence through practical activity. It proposes ways to solve some problems that arise in education and provides a practical example that demonstrates the complementary nature of theory and practice. Tasks are proposed for teachers' professional development, experience sharing, and improving professional practice, and the conclusion emphasizes the invaluable importance of theory and practice in enhancing modern educational quality.

Keywords: pedagogy, professional development, theory, practice, professional

competence, quality of education

Kirish

Zamonaviy talim tizimida juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Bu jarayonda pedagogning rivojlanishi bilimni mustahkamlashi zamon bilan ham nafas bo'lishi muhim ro'l o'ynaydi. Yoshlarga yangi bilimlarni berish nafaqat bilim balki yosh avlodni tarbiyalash intellektual rivojlantirib shaxs sifatida shakillantirishi lozim. Shu sabab bilan pedagog kasbiy rivojlanishi nazariy va amaliy uygunligi alohida ahamiyatli.

"Ta'lim eng dolzarb soha, maktab eng muhim muassasa, o'qituvchilik eng ulug' kasbdir" Sh. Mirziyoyev Pedagogning rivojlanishi bu uning bilim ko'nikma va malakasini oshirib borish jarayonidir. Bu jarayon oliy ta'limni bitirish bilan tugab qolmasligi uzluksiz davom etishi lozim. Pedagogning kasbiy rivojlanishi oquvchi yoshlar bilan samarali ishlashi, bilimlarini amaliy qo'llay olishi, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni bilishi kerak. "Ta'lim nafaqat bilim berish balki ijobiy fikrlashni shakillantirish demakdir" A.Eynshteyn. Nazariya pedagogga dars jarayonini rejalashtirish, maqsad va vazifalarni belgilash, o'quv materialini tanlash va ta'lim metodlarini ongli ravishda qo'llash imkonini beradi. Nazariy bilim pedagogga o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topishga yordam beradi. Amaliyot pedagog kasbiy rivojlanishining ajralmas qismidir. Dars jarayoni, o'quvchilar bilan ishlash, turli pedagogik vaziyatlarni hal etish orqali pedagog nazariy bilimlarini amalda sinab ko'radi. Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ta'lim sohasi xodimlarining mehnati - kelajak farovonligining asosi." Amaliyot pedagogni muammolarni mustaqil hal qilishga, ijodiy yondashishga va o'z kasbiy mahoratini oshirishga undaydi.

Nazariya va amaliyot uyg'unligi. Nazariya va amaliyot bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Faoliyat faqat nazariya bilan cheklansa, pedagog hayotiy vaziyatlarga moslasha olmaydi; faqat amaliyot bilan cheklansa, ishlar tizimsiz bo'ladi. Shu sabab nazariya va amaliyot uyg'unligi pedagog kasbiy rivojlanishida muhim shart hisoblanadi. Ba'zan pedagoglarda yetarli tajriba yoki zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash imkoniyati yetishmaydi. Bu holat ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yechimlar: Malaka oshirish kurslari va seminarlar tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish

Ustoz-shogird tizimini rivojlantirish Pedagoglarning o'z ustida doimiy ishlashi

Xulosa: Shuni aytish mumkinki, pedagoglarning kasbiy rivojlanishida nazariya va amaliyot bir-birini to'ldiradi va birga ishlaganda yanada samarali bo'ladi. Pedagog faqat nazariya yoki faqat amaliyotga tayanib ishlasa, ta'lim jarayonida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Prezident va tarixiy shaxslarning fikrlariga qaraganda,

bilimli va tajribali o'qituvchi jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli har bir pedagog o'z bilimini oshirib, amaliyot bilan boyitib, doimiy ravishda kasbiy mahoratini rivojlantirib borishi kerak

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqlari va intervyulari. O'zbekiston Respublikasi rasmiy veb-sayti, 2021–2025. URL: <https://president.uz/>
2. Einstein A. Education and Thinking. Berlin: Springer, 1921. 250 Конфуций. The Analects of Confucius. London: Oxford University Press, 2009. 350
3. Авиценна (Ибн Сино). Kitab al-Shifa (The Book of Healing). 1027.
4. Hamzayev X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti // Pedagogika va psixologiya zamonaviy ta'limda. – 2021. – №3. – B. 45–59.
5. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – 2024. – №9. – B. 12–28.